

ORQA MIYA ANATOMIYASI , GISTOLOGIYASI VA PATOLAGIK KASALLIKLARI

*Alfraganus universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo`nalishi 2 – bosqich
talabasi Sobirova Quvonchoy Farhodovna*

Annotatsiya : Ushbu maqolada orqa miya tuzilishi, uning anatomik va gistologik xususiyatlari hamda patologik jarayonlar natijasida yuzaga keladigan kasalliklar tahlil qilingan. Orqa miya markaziy nerv tizimining muhim bo‘lagi sifatida organizmning harakat va sezgi faoliyatini boshqarishda tutgan o‘rni yoritilgan. Gistologik jihatdan orqa miya moddalari — kulrang va oq modda tuzilishi, nerv hujayralari va glial elementlarning funksional ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, travmatik shikastlanishlar, degenerativ kasalliklar, yallig‘lanish jarayonlari va tug‘ma nuqsonlar kabi patologik holatlar klinik misollar asosida tahlil etilgan. Maqola orqa miya kasalliklarini chuqur o‘rganish, ularning oldini olish va davolashda ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar : Neyronlar va glial hujayralar faoliyati, orqa miya patologiyasi, travmatik shikastlanishlar, degenerativ kasalliklar, yallig‘lanish jarayonlari va tug‘ma nuqsonlar tahlil qilingan.

АНАТОМИЯ, ГИСТОЛОГИЯ И ПАТОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ СПИННОГО МОЗГА

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрены строение спинного мозга, его анатомические и гистологические особенности, а также заболевания, возникающие в результате патологических процессов. Освещена роль спинного мозга как важнейшей части центральной нервной системы в управлении двигательными и сенсорными функциями организма. С гистологической точки зрения проанализированы серое и белое вещество, нервные клетки и глиальные элементы. Также изучены патологические состояния, такие как травматические повреждения, дегенеративные заболевания, воспалительные процессы и врождённые пороки. Статья направлена на углублённое изучение заболеваний спинного мозга, их профилактику и разработку научно обоснованных подходов к лечению.

Ключевые слова: деятельность нейронов и глиальных клеток, патология спинного мозга, травматические повреждения, дегенеративные заболевания, воспалительные процессы и врождённые пороки.

Orqa miya – umurtqa pog‘onasi kanali ichida joylashgan bo‘lib lotinchada „medulla spinalis“ deyiladi . Yuqori uchi uzunchoq miyaga davom etsa , pastki qismi uchlik

holda II bel umurtqasi sohasida yakunlanadi (conus medullaris) . Shu sababli orqa miya suyuqligini chiqarish (punksiya) yoki anesteziya III va IV bel umurtqalarining qirrali o`simtalari orasidan bajariladi . Orqa miya orqa va old tomonga biroz yassilangan nayga (silindr shakliga) o`xshagan bo`ladi . Shuning uchun umurtqa pog`onasining bo`yin , ko`krak qiyshaymalarini (oldinga va orqaga) takrorlaydi. Orqa miya pastki uchi tobora torayib borib konus shaklida tugaydi va shu konusning pastga qaragan uchidan ingichka tola ketadi , u oxirgi ip filum terminale deb ataladi va kata yoshli odamlarda uning uzunligi 15 sm bo`ladi. Oxirgi ip ikkinchi dum umurtqasi qarshisida , uni ichidan qoplovchi pardada tugaydi.

Orqa miya old va oqa tomondan o`rta chiziqdan uzunasiga ketgan ikkita chuqur egat yordamida ikkita teng bo`lakka , ya`ni o`ng va chap bo`laklarga ajraladi. Egatlarning oldingisi orqadagisiga qaraganda ancha chuqur bo`lib, bunga fissura mediana ventralis anterior, orqadagi yuzarog`iga esa sulcus medianus dorsalis posterior deyiladi. Orqa egatning tagiga orqa miyaning orqa qismini ikkiga ajratib turgan yupqa parda – septum medianum kelib tutashadi. Orqa miya oldingi va orqa egatlarining tashqi tomonida joylashgan qismlari yana bir juftdan yon egatlar , ya`ni oldingi yon egatlar - sulcus lateralis anterior , orqadagi yon egat - orqadagi yon egat – sulcus lateralis posterior yordamida har tomondan uchtadan tizimchaga bo`linadi. Bu yon egatlarning chuqurligi turlicha. Orqadagi yon egatlar birmuncha chuqur va yaxshi ko`rinadi. Tizimchalarning oldingisi – funiculus anterior boshqalariga nisbatan ingichkaroq bo`lib , fissura mediana anterior bilan sulcus lateralis anterior o`rtasida joylashadi , orqadagi tizimcha funiculus posterior orqadagi o`rta egat – sulcus medianus posterior bilan sulcus lateralis posterior o`rtasida , yon tizimcha funiculus lateralis esa sulcus lateralis anterior bilan sulcus lateralis posterior o`rtasida joylashgan. Bu yon egatlardan orqa miya nervlarining boshlang`ich nerv ildizlari chiqadi. Oldingi yon egatlar bo`ylab har ikki tomondan nervlarning oldingi ildizlari – radix ventralis, orqadagi yon egatlardan esa ularning orqadagi ildizlari – radix dorsalis chiqadi. Bu ildizlarning oldingisi harakatlantiruvchi nerv tolalaridan, orqadagi ildizchalari esa sezuvchi nerv tolalaridan tashkil topgan. Ular orqa miyadan chiqqandan so`ng umurtqalarning kemtiklari qo`shilishidan hosil bo`lgan yon teshiklar oldida yoki ichida bir-biri bilan birikadi va aralash (harakatlantiruvchi va sezuvchi tolalardan tuzilgan) nerv hosil qiladi. Shu ikki ildizchaning qo`shilish joyida orqadagi ildizcha hisobidan tuguncha – ganglion spinale paydo bo`ladi. Bunday ildizcha hamma orqa miya nervlarining orqadagi ildizlarida bor. Orqa miyadan hammasi bo`lib 31 juft nerv chiqadi. Orqa miya kulrang moddasining har qaysi nerv ildizchasi qarshisidagi qismi orqa miya bo`lagi (segmenti) deb ataladi. Demak, orqa miya 31 ta segmentdan iborat bo`lib, ular quyidagicha taqsimlanadi: bo`yin segmentlari – 8 , ko`krak segmentlari – 12 , bel segmentlari – 5 , dumg`aza

segmentlari – 5 , dum segmenti – 1. Orqa miyaning og`irligi 34 – 38 g bo`ladi. Yo`g`onligi hamma joyda bir xil emas, u ikki joyida anchagina yo`g`onlashgan. Birinchi yo`g`onlashma (intumescencia cervicalis) bo`yin qismida bo`lib, II bo`yin umurtqasi bilan II ko`krak umurtqalari oralig`iga to`g`ri keladi, ikkinchisi – bel qismidagi yo`g`onlashma (intumescencia lumbalis) ko`krak umurtqasi qarshisidan boshlanib , konusga qadar davom etadi. Bunday yo`g`onlashma orqa miyaning shu qismlaridan qo`l va oyoq muskullariga boradigan yo`g`on nervlaridan hosil bo`ladi. Bu yo`g`onlashgan qismlarda nerv hujayralari va ulardan chiquvchi nerv tolalarining miqdori boshqa qismlarga nisbatan ko`p.

Orqa miya ikki xil moddadan, ya`ni uning markazida joylashgan kulrang modda – substantia grisea va uni o`ragan oq modda – substantia alba tuzilgan bo`ladi. Kulrang modda orqa miyaning uzunasiga joylashgan bo`lib, oldidan orqasiga tomon cho`zilgan va bir-biri bilan ko`ndalang xari bilan qo`shilgan ikki kolonnadan iborat. Kolonnada oldingi kulrang ustun – columna grisea anterior va orqa kulrang ustun – columna grisea posteriorga ajratadi. Markaziy kanalning paski, konusga yaqin qismi kengaygan bo`lib, bunga oxirgi qorincha – ventriculus terminalis deyiladi, tepa tomoni esa uzunchoq miya kanali orqali bosh miyaning IV qorinchasi bilan qo`shiladi.

Orqa miya ko`ndalangiga kesilganda kulrang moddani kapalak shaklida yoki „H“ harfi shaklida bo`lishini ko`rish mumkin. Ana shu kulrang moddaning oldingi qismlari biroz kengaygan, orqa qismi esa, aksincha, toraygan , nayzasimon bo`ladi. Oldingi kengaygan qismini oldingi shoxlar – cornu anterior, orqadagi toraygan qismi – cornu posterior deyiladi. Oldingi va orqadagi shoxlarni bir biriga qo`shib turgan sohani zona intermedia ya`ni oraliq soha deyiladi. Ana shu oraliq soha birinchi ko`krak segmenti bilan uchinchi bel segmenti o`rtasida yon tomongabirmuncha turtib chiqqan bo`ladi. Bu joy tashqi yon shoxlar – cornua lateralia deb ataladi. Orqa miyaning bo`yin sohasida, orqa va oldingi shoxlar oralig`idagi oq modda bag`rida (kulrang modda yaqinida) ko`p tarmoqli nerv hujayralaridan iborat to`rsimon tuzilma bo`lib, bunga formation reticularis deyiladi.

Orqa miyani o`rovchi pardalar – meninges uch turag bo`linib, tashqi tomondan qattiq parda dura mater; o`rtadagi to`rsimon parda arachnoidea mater va ichki yumshoq parda – pia mater deyiladi. Orqa miyani o`raydigan pardalar, yuqori qismda bosh miyaning xuddi shunday pardalariga davom etadi.

Orqa miya qattiq pardasi umurtqa pog`onasidagi kanal devoir bilan orqa miya orasida joylashgan. Kanal devoir bilan qattiq parda orasida epidural bo`shliq – cavitas epiduralis joylashib, bu sohada yog` to`qimalari va venoz chigallar uchraydi.

Qattiq pardoning ichkarisida to`r parda joylashgan bo`lib, bu pardalar orasida subdural bo`shliq – spatium subdurale bo`ladi.

To` parda orqa miyaning egat va tirqishlari ustidan yo`naladi. Bu eagtlarning ichiga kirib, orqa miyani har tarafdan o`raydigan pardaga yumshoq parda deb ataladi. To`r va yumshoq parda orasidagi bo`shliq subaroxnoidal bo`shliq – cavitas subaroxnoidalis joylashadi. Bu bo`shliq miya suyuqligi – liquor cerebrosppinalis bilan to`lib turadi. Orqa miya atrofidan bu bo`shliq bosh miya atrofidagi xuddi shunday bo`shliqqa davom etadi. O`z navbatida, orqa miya atrofidagi subaroxnoidal bo`shliqda frontal tekislikda joylashgan 19-23 tishsimon boylam – lig. denticulatum joylashadi. To`rsimon parda ostida joylashgan bu boylamlar suboraxnoidal bo`shliqni oldingi va orqa bo`limlarga bo`ladi va orqa miyaning harakatini cheklab turadi.

GISTOLOGIIYASI. Orqa miyaning kulrang moddasi neyronlar tanasidan, miyelinsiz va miyelinli ingichka nerv tolalaridan hamda neyroglidan tashkil topgan. Kulrang moddaning oq moddadan farq qiladigan asosiy tarkibiy qismi multipliyar neyronlar hisoblanadi. Kattaligi, nozik tuzilishi va funksional ahamiyatiga ko`ra o`xshash neyronlar kulrang moddada to`p-to`p b`lib joylashadi, ular yadrolar deb ataladi. Orqa miya kulrang moddasi neyronlari ichida ildizcha hujayralar, ichki hujayralar va tutamli hujayralar farqlanadi. Ildizcha hujayralar (neuracytus reticularis) ga orqa miyaning hamma motaneyronlari kiradi. Ularning tanalari oldingi shoxlarda , yon shoxlardagi vegetativ markazlarda (lateral – oraliq yadro va orqa miyaning pastki segmentlarida – medial oraliq yadroda) joylashadi, aksonlari esa oldingi ildizcha tarkibida chiqib, orqa miya nervlarining harakatlantiruvchi qismini tashkil etadi. Ichki hujayralar (neuracytus internus) ning o`simtalari orqa miyaning bir segmenti sohasida kulrang moddadan tashqariga chiqmaydi va sinapslar hosil qilib tugaydi. Ular assotsiativ neyronlar hisoblanadi. Tutamli hujayralar (neuracytus funicularis) ning aksonlari tolalarning alohida tutamlari shaklida o`sha yoki qarama qarshi tomondagi oq moddaga o`tib, pastga tushadi yoki yuqoriga ko`tariladi hamda impulslarni orqa miyaning muayyan segmentlaridan uning boshqa segmentlari va bosh miyaning tegishli markazlariga olib boruvchi o`tkazuvchi yo`llarni hosil qiladi. Orqa miyaning kulrang moddasi uch xil multipilyar neyronlardan tashkil topgan. Neyronlarning birinchi turi filogenetik jihatdan eng qadimgisi bo`lib , kam sonli, to`g`ri va kuchsiz shoxlangan dendritlarga ega. Bunday neyronlar oraliq zonada ko`pchilikni taskil qiladi hamda oldingi va orqa shoxlarda uchraydi. Neyronlarning ikkinchi turi ko`p sonli kuchli shoxlangan dendritlar tutadi, ular o`zaro chatishib „ koptokchalar” hosil qiladi. Ular oldingi shoxlarning harakatlantiruvchi yadrolari hamda orqa shoxlar uchun xosdir . Neyronlarning uchinchi turi dendritning rivojlanish darajasiga ko`ra birinchi oldingi va orqa shoxlarda, orqa shoxning xususiy yadrosida joylashgan. Orqa shoxlarda g`ovak zona, jelatinsimon modda, orqa shoxning xususiy yadrosi va ko`krak (klark yadrosi) yadrolari farq qiladi. Orqa va yon shoxlar o`rtasida kulrang modda tasmalar hosil qilib

oq moddaga botib kirishi natijasida uning to`rsimon tuzilma nomini olgan, to`rga o`xshash yumshoq qismi hosil bo`ladi. Orqa shoxlarning g`ovak zonasi keng tarmoqli glial sinch bo`lib, unda ko`p miqdorda mayda oraliq neyronlar bor. Jelatinasimon moddada glial elementlar ko`pchilikni tashkil qiladi. Bu yerda nerv hujayralari juda kam va mayda bo`ladi. Orqa shoxlar diffuz joylashgan oraliq hujayralarga boy. Ular mayda multipolyar assotsiativ va komissural hujayralar bo`lib, ularning aksonlari orqa miya kulrang moddasining o`sha tomoni (assotsiativ hujayralar) yoki qarama qarshi tomoni (komissural hujayra) ichida tugaydi. G`ovak modda va jelatinasimon modda neyronlari hamda oraliq hujayralar mahalliy reflektor yoyini tutashtirib, orqa miya tugunlarining sezuvchi neyronlari va orqa miya oldingi shoxlarining harakatlantiruvchi neyronlari o`rtasidagi aloqalarni ta`minlaydi. Orqa shoxning o`rtasida orqa shoxning xususiy yadrosi joylashadi. U oraliq neyronlardan tashkil topgan. Ushbu hujayralarning aksonlari oldingi oq to`siq orqali orqali orqa miyaning qarama – qarshi tomonidagi oq moddaning yon ustunchasiga o`tadi, bu yerda ventral orqa miya – miyacha va orqa miya – talamik o`tkazuvchi yo`llar tarkibiga qo`shiladi va miyacha hamda ko`ruv do`mbog`i tomon yo`naladi. Dopralsal yadro (klark yadrosi) kuchli shoxlangan dendritlar tutgan yirik oraliq neyronlardan tashkil topgan. Ularning aksonlari o`sha tomondagi oq moddaning yon ustunchalarioga o`tadi va dorsal orqa miya – miyacha yo`li (Fleming) tarkibida miyachaga ko`tariladi. Oraliq zonada medial, oraliq va lateral oraliq yadrolar farqlanadi. Medial oraliq yadro neyronlarining aksonlari o`sha tomondagi ventral orqa miya – miyacha yo`liga qo`shiladi. Yon shoxlarda joylashgan lateral oraliq yadro simpatik reflector yoyining assotsiativ neyronlari guruhidan iborat. Ushbu neyronlarning aksonlari simpatik harakatlantiruvchi tolalari bilan birgalikda orqa miyadan oldingi ildizchalar tarkibida chiqadi va simpatik stvol tarmoqlarining oq biriktiruvchi tarmoqlari sifatidan ulardan ajralib turadi. Oldingi shoxlarda orqa miyaning eng kata neyronlari joylashgan, ular tanalarining diametri 100 – 150 mkm bo`lib, yirik yadro tutadi. Yonshoxdagi yadrolarning hujayralari kabi bu neyronlar ham ildizcha hujayra bo`lib, ularning aksonlari oldingi ildizchalar nerv tolalarining asosiy qismini tashkil etadi. Aralash orqa miya nervlari tarkibida ular periferiyaga yo`naladi va skelet mushaklarida harakat nerv oxirlarini hosil qiladi. Ushbu yadrolar somotomotor markazlaridir. Oldingi shoxlarda harakat neyronlarining medial va lateral guruhlari yaqqol farqlanadi. Medial guruh hujayralari tana va umurtqa mushaklari ishini boshqaradi va orqa miyaning butun uzunligi bo`ylab yaxshi rivojlangan. Lateral guruh bo`yin hamda bel sohasidagi bo`rtmalarda joylashadi va qo`l hamda oyoq mushaklatrini innervatsiya qiladi.

Orqa miya neyroglia – orqa miya kanali epindimogliya bilan qoplangan, u orqa miya suyuqligini hosil qilishda va aylanishida ishtirok etadi. Eprndimotsitlarning

periferik oxiridanbitta uzun o`simta chiqadiva orqa miyaning barcha qavatlaridan o`tib, uning tashqi chegaralovchi membranasi tarkibiga kiradi. Kulrang modda sinchining asosiy qismini protoplazmatik va tolali astrotsitlar taskil qiladi. Tolali astratsitlarning o`simtalari kulrang moddadan tashqariga chiqadi va biriktiruvchi to`qima elementlari bilan birgalikda oq moddadagi to`siqlarni hamda qon tomirlar atrofida va orqa miyaning yuzasidagi glial pardalarni hosil qilishda ishtirok etadi. Oligodendroglia hujayralari nerv tolalarining tarkibiga kiradi. Mikroglia orqa miyaga qon tomirlarining unga o`sib kirishi orqali tushadi va kulrang hamda oq moddaga tarqaladi. Orqa miyaning oq moddasi bo`ylama yo`nalgan, asosan miyelinli nerv tolalari va neyroglia yig`indisidan iborat. Nerv sistemasining turli qismlarini bir-biri bilan bog`lab turuvchi nerv tolalarining tutamlari orqa miyaning o`tkazuvchi yo`llari deb ataladi. Kulrang moddaning shoxlari va glial to`siqlar oq moddani uch juft: orqa, yon va oldingi ustunchalarga ajratadi. Orqa ustunchalar bir-biridan orqa to`siq bilan ajralgan va asosan yuqoriga ko`tariluvchi yo`llardan iborat. Yon ustunchalarda yuqoriga ko`tariluvchi va pastga tushuvchi tolalar deyarli teng miqdorda bo`ladi. Oldingi ustunchalar o`rtasida chuqur oldingi yoriq bo`lib, ushbu ustunchalar tarkibidagi o`tkazuvchi yo`llar asosan pastga tushuvchi yo`llar hisoblanadi.

Yoshga ko`ra o`zgarishlari. Chaqaloq orqa miya nerv tizimi boshqa qismlarga nisbatan yaxshi rivojlangan. Tug`ulishiga yaqin orqa miya kanali erkin yuzasi kiprik tutuvchi endimotsitlar bilan qoplangan. Bu kipriklar 5 yoshga yetganda yo`qoladi. Makro va mikroglialar shakllanishi 6 oylikda tugaydi. Chaqaloqlarda orqa miyaning hamma yadrolari mavjud bo`lib neyrotsitlari mayda, ular pigment tutmaydilar. Chaqaloqlar nerv tolalarining miyelinlanishi kattalarga nisbatan ancha sust bo`ladi. Miyelinizatsiya jarayoni 2 – 3 yoshga kelib yakunlanadi. Afferent tolalarda bu jarayon efferent tolalarga nisbatan tez boradi. Piramida yo`li tolalari 2 – 3 oylikda kata yoshdagilarga o`xshab qoladi. Yon tutam tolalari miyelinizatsiyasi 4 yoshga kelib yakunlanadi. Spinal gangliylar organizmning ko`p qismidan nerv impulslarini orqa miyaga olib keladi. Shuning uchun uning jarohati tashqaridan keladigan sezgini pasaytirishi yoki umuman otkazmasligi mumkin. Orqa miyada ko`p orttirilgan yoki tug`ma kasalliklar uchraydi Tug`ma kasalliklar ko`proq nerv nayining taraqqiyoti bilan bog`liq. Bolalarda ko`p vaqt orqa miya churrasi uchraydi. Katta odamlarda spinal suyuqlik miqdori 150 ml atrofida bo`ladi va xar 4 – 7 soatda yangilanib turadi. Bir sutkada 500 mlgacha suyuqlik ishlanadi. Suyuqlik tarkibida natriy, xlor, kaliy elementlari ko`p bo`ladi. Suyuqlik ko`proq to`r qavatda so`riladi.

Patologik kasalliklari. Orqa miya patologik kasalliklari inson salomatligida jiddiy nevrologik muammolarni keltirib chiqaradigan murakkab kasalliklar guruhini tashkil etadi. Ular turli etiologik omillar – travma, degenerativ jarayonlar, yallig`lanish va

infeksiya, o'sma hamda qon tomir kasalliklari natijasida yuzaga keladi. Ushbu kasalliklar klinik jihatdan sezuvchanlik buzilishi, mushak kuchsizligi, harakat cheklanishi va tos a'zolari faoliyatining izdan chiqishi bilan namoyon bo'ladi. Travmatik shikastlanishlar ko'pincha yo'l-transport hodisalari, balandlikdan yiqilish yoki sport jarohatlari oqibatida yuzaga keladi. Ko'ndalang shikastlanish falaj, reflekslarning yo'qolishi, siydik va ichak faoliyatining buzilishi bilan kechadi, ezilish va gematomalar esa orqa miyaning qon aylanishini buzib, tezkor nevrologik simptomlarni keltirib chiqaradi. Bunday holatlarda immobilizatsiya, jarrohlik va rehabilitatsiya muhim ahamiyatga ega.

Degenerativ kasalliklar asosan yoshi katta odamlarda uchraydi. Disk prolapsi nerv ildizlarini siqib, bel og'rig'i va radikulyar simptomlarni keltiradi. Servikal spondiloz qo'l-oyoqda uyquchanlik va mushak kuchsizligiga sabab bo'ladi, umurtqa kanal stenozisi esa paraparez va yurish buzilishiga olib keladi. Davolash konservativ usullar – fizioterapiya va dori vositalari – hamda og'ir holatlarda jarrohlikni o'z ichiga oladi. Yallig'lanish va infeksiyon kasalliklar orasida araxnoidit, xo'ppoz va transvers mielit alohida o'rin tutadi. Araxnoidit orqa miya pardalarining qalinlashishi va radikulyar og'riqlar bilan kechadi, xo'ppoz yiringli jarayon bo'lib, isitma va progressiv paraparezni keltirib chiqaradi, transvers mielit esa virus yoki bakteriyalardan keyin rivojlanib, sezuvchanlik va harakat buzilishiga olib keladi. Davolash antibiotiklar, kortikosteroidlar va ba'zan jarrohlik drenajni talab qiladi. Orqa miyada uchraydigan o'smalar ichki, yuzaki va epidural bo'lishi mumkin. Ichki o'smalarga astrocitoma va epindimoma, yuzaki o'smalarga meningioma va neyrofibroma, epidural o'smalarga esa metastaz, lipoma va limfoma kiradi. Ular og'riq, motor va sensor buzilishlar hamda tos a'zolari disfunktsiyasi bilan namoyon bo'ladi. Davolash jarrohlik, kimyoterapiya va radiatsiya terapiyasini o'z ichiga oladi. Qon tomir kasalliklari orasida gemangioma, arteriovenoz malformatsiya, ishemik insult va gemorragik jarayonlar uchraydi. Ular qon aylanish buzilishi, kramp og'riqlar, sezuvchanlik va harakat buzilishlariga sabab bo'ladi. Davolash endovaskulyar obliteratsiya va simptomatik terapiya yordamida amalga oshiriladi. Metabolik va boshqa kasalliklar ham orqa miyada patologik jarayonlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, B12 vitamini yetishmovchiligi kombinatsiyalangan degeneratsiya, ataksiya va paraparezga sabab bo'ladi. Radiatsion miyelopatiya radiatsiya terapiyasidan keyin oq va kulrang modda nekrozi bilan kechadi, OITS bilan bog'liq miyelopatiyalar esa surunkali paraparez va ko'rish buzilishi bilan namoyon bo'ladi.

Umumiy klinik belgilarga bel og'rig'i, sezuvchanlik buzilishi, motor buzilishlar va avtonom disfunktsiyalar kiradi. Erta tashxis qo'yish va kompleks davolash usullarini qo'llash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, profilaktika choralariga amal qilish – og‘ir yuk ko‘tarmaslik, to‘g‘ri jismoniy faollik va vitaminlar qabul qilish kasalliklarning oldini olishda katta rol o‘ynaydi.

XULOSA. Orqa miya anatomiyasi va gistologiyasi uning murakkab tuzilishini, nerv tolalari va hujayra qatlamlarining o‘zaro uyg‘un faoliyatini ko‘rsatadi. Ushbu tuzilma organizmning harakat, sezuvchanlik va vegetativ funksiyalarini ta‘minlaydi. Orqa miyaning patologik kasalliklari esa turli etiologik omillar – travma, degenerativ jarayonlar, yallig‘lanish, infeksiya, o‘sma va qon tomir kasalliklari natijasida yuzaga kelib, bemor hayot sifatini keskin pasaytiradi. Klinik belgilarning xilma-xilligi va og‘irligi tashxis qo‘yishda zamonaviy instrumental usullarni qo‘llashni talab etadi. Shu bois, orqa miya kasalliklarini o‘z vaqtida aniqlash, kompleks davolash va profilaktika choralarini ko‘rish nevrologik sog‘liqni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Anatomik va gistologik bilimlar patologik jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa klinik amaliyotda samarali tashxis va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. „ Odam anatomiyasi “ – Abdug`affor Gadayev
2. „ Gistologiya, Sitologiya va embriologiya “ – Prof. Q. R. To`xtayev
3. „ Patologik anatomiya “ - M. S. Abdullaxo`jayeva
4. „ Ichki kasalliklar propadevtikasi “ – Abdug`affor gadayev
5. „ Umumiy nevrologiya “ – Zarifboy Ibodullayev